

*Jizzakh State Pedagogical Institute*



**Journal of Preschool  
Education**

*The faculty of pre-school  
education*

**@Maktabgacha yoshdagi bolalarning ingliz tilini o'rganishida  
drammatizatsiya usulidan foydalanish**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

**Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-bosqich**

**talabalari Nodirova Munojot va Yusupova Yangilish**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga chet tillarini o'rgatishda an'anaviy usullardan chetlashib drammatizatsiya usulidan yani sahnalashtirish usullaridan foydalangan holda mashg'ulotlarni tashkil etish va shu orqali bolalarni ingliz tilini yanada oson, sifatli va tez o'rganishga yo'naltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar, chet tili-ingiliz tili, drammatizatsiya, karton teatri, soya teatri, stol teatri.

Bugungi kunda chet tillarini o'rganish va o'rgatishga alohida ahamiyat berilmoqda. Shu asosida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti tomonidan 2012-yil 10-dekabirdagi "Chet tillarini o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi qarori asosida bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini maktabgacha yoshdan boshlab o'tilishi tarbiyalanuvchilarning ingliz tilini oson o'zlashtirishiga imkon beradi.

Drammatizatsiya(dramalashtirish, drama holiga keltirish ya'ni sahnalashtirish) – bu real yoki hayoliy voqealarni tasvirlaydigan materiallardan dramatic spektakl yaratishdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ingliz tilini o'rgatishda sahnalashtirilgan o'yin faoliyatlaridan foydalanish ijobiy ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatishda drammatizatsiyaning o'yin faoliyatidan foydalanib, sahna ko'rinishlarini yaratgan holda tarbiyalanuvchilar ishtirokida ingliz tili mashg'ulotlarini tashkil etish bolalarning so'z boyligini oshirishga hamda xotiralarida yanada mustahkam eslab qolishlariga va ularning ijodkorlik qobiliyatlarini takomillashtirishga yordam beradi.

Ertak va hikoyalarni sahnalashtirish orqali mashg'ulotlarni tashkil etish bolalarda faqatgina ijrochilikni emas balki ularda ta'limiy va tarbiyaviy bilim berishi bilan ajralib turadi. Tarbiyalanuvchilar sahnalashtirilgan ertak va hikoyalar orqali ingliz tilida so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishlari va o'zlariga berilgan obrazlar orqali ingliz tilida gapirishga harakat qiladi. Bu orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni ingliz tiliga bo'lgan qiziqishini tanada oshiradi

Drammatizatsiyalashtiriladigan kongilochar o'yinlar maktabgacha yoshdagi bollarda yanada qiziqish uygotadi. Negaki uning tarkibida chet tilida uyishtirilgan konsertlar, qog'irchoq teatri tomoshalari, bolalar,

tarbiyachi - xodimlar hamda ota-onalar hamkorligida tayytayyorlangan sahna teatri va qòg'irchoq teatri kabi bir qator sahna korinishlarini òz ichiga oladi. Drammatizatsiyalashtirilgan kongilichar òyinlarda kattalar va bolalar teng huquqli sheriklar sifatida harakat qilishadi .

Ertaklarni sahnalashtirish maktabgacha yoshdagi bolalarni mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar singari bo'lishga, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, unda ezgulik kuchining - yaxshilikning doimo g'alaba bilan tugashi bolalarni o'ziga jalb qiladi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi ingliz tilida bolalarning talaffuzini yaxshilanishi takror qaytarilganda ular xotirasida yaxshi saqlanib qolishiga ko'mak beradi .

Soya teatrlarini sahnalashtirish - qo'g'irchoq sahnalashtirishning o'ziga xos turlaridan hisoblanadi. Unda qo'g'irchoqlar emas balki shakllardan iborat o'yinchoqlar o'ynaydi. Tomosha qiluvchilar sahna ro'parasida o'tirib, ekranda yorug'lik orqali harakatlanayotgan soyalar: odamlar, hayvonlar va qushlar soyasini ko'rishi mumkin. Soya teatrlarini sahnalashtirish uchun odam va hayvon soyalarini bolalarning o'zlari chizib, qirqa oladilar. Bolalarga shakllarni boshlari dumlarini qimirlatadigan qilishni o'rgatish kerak, buning uchun detallarni simlar bilan biriktirib, spiral holatda aylantirib qo'yiladi.

Karton teatrlarini sahnalashtirishda kartondan yasalgan yassi va hajmli qo'g'irchoq shakllar ishtirok etadi. Bir tomonlama shakllar ip, sim va shu kabilar yordamida faqat bir tomonga harakat qiladi. Karton teatrlarini sahnalashtirishda yuqoridan turib ip, sim bilan boshqariladigan shakllar ham qatnashadi, ular yengil harakat qiladilar, burila oladilar. Sahna uch bo'lak karton yoki fanerdan yasaladi.

Stol teatrini sahnalashtirishning bir necha turi mavjud: birida pyesa oddiy sahnada-pardasiz shirmada, boshqa qutichaga o'xshash sahnada (karton sahnalashtirish), uchinchisi yassi sahnalashtirishda, sahna ikki bo'lak kartondan qilinadi. Bu sahnalashtirishlardagi personajlarni qo'l bilan, tagliklar, sim va magnit orqali turlicha harakat bajartiriladi. Shakllarning tuzilishi ham turlichadir. Ish ertak yoki masal tanlashdan boshlanadi, so'ngra unga mos personajlar tayyorlanadi.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz til o'rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg'ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan, shu jumlada drammatizatsiyalashtirilgan ertak va hikoyalardan foydalangan holda mashg'ulotlarni tashkil etish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar chet tillarini o'rganish qanchalar muhimligini tabiiy sharoitlar orqali to'g'ri tushuntirib borilishi darkor. Aslida chet tilini o'rganishni bolaning juda ham yosh

davirlardan boshlagan ma'qul hisoblanadi. Kichik yoshdagi bolalarning miyya faoliyati to'xtovsiz o'sish rivojlanishda davom etayotgani uchun ular miyya faoliyati to'liq shakllanib bo'lgan, katta shaxslarga nisbatan yangi ma'lumotni ancha tezroq qabul qilish qobiliyatiga egadirlar. Ushbu o'ziga xosliklarni inobatga olgan holda darsni drammatizatsiya usulida rejalashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Astafieva M.D. Ingliz tilini o'rganayotgan bolalar uchun ta'fil. - M.: Mozaika-sintez, 2009 y.
- 2.Galskova N.D. Nikitenko Z.N. Chet tillarni o'qitish nazariyasi va amaliyoti. boshlang'ich maktab (<https://monster-evo.ru/uz/kursovaya/skachat-viktorinu-po-skazkam-dlya-nachalnoi-shkoly-viktorina-po-skazkam/>): uslubiy qo'llanma.-M.: Airis-press, 2004.
- 3.Guseva L.P. Biz o'ynaymiz, o'qitamiz, o'zlashtiramiz - biz ingliz tilini bilishni xohlaymiz. - Rostov n / a: Feniks, 2009 y.
- 4.Zemchenkova T.V. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ingliz tili. - M.: VAKO, 2008 yil.
- 5.Ivanova M.V. Bolalar uchun ingliz tili. - M.: AST: Astrel, 2009 y.
- 6.Trofimova G.S. Chet tillarni o'qitishning pedagogik asoslari (Subaktika didaktikasi). - Izhevsk: Udmurt universiteti nashriyoti, 1999 y.
- 7.Kozina S.V. Ingliz tilida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ta'fil. - M.: TC Sphere, 2008 yil.